



OLOT SHEVASINING LEKSIK TARKIBI XUSUSIDA

Daniyorova Oydinaxon Boboyorovna

Folklorshunoslik va Dialektologiya mutaxassisligi
2- kurs magistranti Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.20624907>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 06-iyun 2026 yil
Ma'qullandi: 08- iyun 2026 yil
Nashr qilindi: 10- iyun 2026 yil

KEY WORDS

leksika, semantika, folklor, sheva, dialect, nom, toponim.

ABSTRACT

Ushbu ilmiy maqolada Buxoro viloyati Olot tumanining leksikasi leksik-semantik guruhlariga bo'lib o'rganiladi. Shaxs va qavm-qarindoshchilikni ifodalovchi so'zlar, kiyim-kechakka oid so'zlar, dehqonchilikka oid so'zlar, hayvon nomlari, oziq ovqat nomlari qanday aytilishi va nima maqsadda ishlatilishi tahlil qilingan.

Olot tumani Buxoro viloyatida joylashgan bo'lib, u 1943-yil 14-fevralda tashkil qilingan. Aholisining 0.3 foizi ruslar, 0.1 foizini ukrainlar, 0.5 foizini qozoqlar, 0.3 foizini tojiklar, 0.4 foizini turkmanlar va boshqa millat vakillari tashkil qiladi. Olot tumani leksikasi o'g'uz lahjasiga mansubdir. Bugunga qadar Olot leksikasi mustaqil, alohida tavsif qilinib o'rganilmaga. Olim va tadqiqotchilarning ishlarida leksikasi, morfemikasi, fonetikasi haqida biroz to'xtalib o'tilgan. M.M.Mirzayevning "O'zbek tilining Buxoro gruppasi shevalari", A.A.Alijonovning "Buxoro o'g'uz shevalar leksikasi" ishlarida Olot tumanining leksikasi va fonetikasiga birmuncha to'xtalib o'tilgan.

Adabiyotlar sharhi. Olot shevasi Buxoro vohasi shevalari tarkibida o'rganilib, uning leksik qatlamida qadimiy turkiy unsurlar, mahalliy etnografik birliklar hamda qo'shni tillar ta'sirida shakllangan so'zlar mavjudligi qayd etilgan. O'zbek dialektologiyasiga oid tadqiqotlarda Olot shevasining lug'aviy tarkibi, kasb-hunar, chorvachilik va dehqonchilikka oid leksik birliklari tahlil qilingan. Shu bilan birga, shevadagi ayrim so'zlarning adabiy tildagi muqobillari va semantik xususiyatlari ham ilmiy jihatdan yoritilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tavsifiy, qiyosiy-tarixiy va lingvogeografik metodlardan foydalaniladi. Olot shevasiga oid leksik birliklar dala tadqiqotlari orqali yig'ilib, ularning ma'nosi, qo'llanish doirasi hamda etimologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Olingan natijalar o'zbek adabiy tili va boshqa hududiy shevalar materiallari bilan qiyosiy asosda o'rganiladi.

Tahlillar va natijalar. Sh.Sh. Shoabdurahmonovning "O'zbek xalq shevalarining morfologiyasi" kitobida esa Olot tumanining ba'zi qishloqlarining morfologiyasiga to'xtalib o'tgan xolos.

a) shaxs va qavm-qarindoshlik tushunchalarini ifodalovchi so'zlar
Ўzora –do'st ma'nosida ishlatiladi; Aka jorajiz keldi- aka do'stingiz keldi.

Doyan- qarindosh ma'nosini bildiruvchi so'z. Bu so'z Jumabozor, Chovdir. Kalelin qishloqlarida ko'p ishlatiladi; bükün doyanlarim bilan otiraman. Bugun qarindoshlarim bilan o'tiraman.

Bača – bola. Qiz bolaga ham o'g'il bolaga nisbatan ham umumiy ishlatiladigan so'z; bačam keldimmi- bolam keldingmi.

b) qavm-qarindoshchilik bildiruvchi so'zlar:

Bava, buva- otaning, onaning dadasiga nisbatan ishlatiladi. Olot tumanining barcha qishloqlarida shu ikki variantda ishlatiladi; bavam maņa kojlak opkeldi- bobom menga ko'ylak olib keldi.

Bibi, buvi, mama – otaning, onaning onasiga nisbatan ishlatiladi., Xalifa mahalasida bibi shakli, qolgan qishloq va mahalla vakillari nutqida buvi va mama shakllari ishlatiladi; bibim kečaja kelamiš- buvim kechga kelar ekan.

Tota – bu otaning, onaning onasiga nisbatan murojaat. Xo'ja nasabiga tegishli vakillar shu tarzda murojaat qiladi; totam maņa kojlak opkelotan- to'tam menga ko'ylak olib kelyapti.

Daji – tog'aga murojaat; Dajimni ujiğa borajlik – tog'amning uyiga boraylik.

Jazna- pochcha ma'nosini ifodalaydi; jaznamni sasi jaman balant – yaznamning sasi yomon balant.

d) kiyim – kechakka oid so'zlar:

Kamžol, kamzolča – yengi kelta, paxta solib tikiladigan ayollar va erkaklar kiyimi. Bu so'z tumanning barcha qishloqlarida faol ishlatiladi. **Güppiča** – shakli yoshi ulug'lar nutqida faol; Koča kamžolsiz čiqma- ko'chaga kamzo'lsiz chiqma.

Kališ, kaloš – sovuqda kiyiladigan, lekin yoz paytlari azali xonadonning egalari kiyadigan oyoq kiyim; jaņgi kaloš ališim karak – yangi kalo'sh olishim kerak.

Massi - qishda kalo'shning ichidan kiyiladigan to'piqdan teparoq turadigan shakli paypoqqa o'xshaydigan, yangi kelinlarga ham to'yi kuni kiydiriladi; massini kelina kiydirish estan čiqmasin – massini kelinga kiydirish esdan chiqmasin.

Žolap – paypoq. Asosan bu Jumabozor, Kalelin. Kasakli kabi qishloqlarda ishlatiladi; žolapni ječ hol bolip ketan – paypog'ingni yech ho'l bo'lib ketibdi.

Patak – oyoq kiyim ichiga qo'yiladigan, issiq turishi uchun ishlatiladigan buyum; kališima patak aldım jaxšimijakan – kalishimga patak oldim yaxshi ekanmi.

Tamaqtekı – shakli katta bo'yin, tomoq bilan o'raladigan ro'mol; tamaqtekimi jıtdırdım – tomoqtekimni yo'qotdim

Lačak- Yoshi katta ayollar kiyadigan va to'y marosimlarida yangi kelinlarga kiydiriladigan bosh kiyim. Kelinlarga to'yda katta yoshlarga yetib yursin degan qarash bilan shunday bosh kiyim kiyish marosimi bor; keliniņ bašja lačaji tašlan, bizartak bolip jursin – kelinning boshida lachak tashla bizdek bo'lib yursin.

Xoržin – xo'rjin. Sumka ma'nosida ishlatiladi. Qizlar ota uyiga borganda yoki shahardan mehmonlar qishloqqa borganda xo'rjinimni to'ldirdim deb aytadi; - anamkija kelantim xoržinimi toldirip ketjatimman.

e) uy-ro'zg'or buyum nomlari:

Žorap – supurgi. Olot tumani Xalifa, Qumqishloq, Oqpo'lot, Bo'ston Denov, Jumabozor kabi hududlarda shunday nom bilan ishlatiladi. Žorap qerda- supurgi qayerda. **Süpsa** – shakli ham bor. Bu asosan Chovdir, Kalelin, Lelin yo'li kabi qishloqlarda shunday nomlanadi. Supsanı hollap ke- supurgini namlab kel.

Süpra - xamir qoriladigan, yoziladigan ichida doim un turadigan katta qalin matodan qilingan dasturxon; Suprani duva etip jap – suprani duo qilib yop.

Bitanča// pītanča// bīdan - ichiga suyuq mahsulot soladigan, metaldan qilingan idish. Olot tumanining barcha qishloqlarida shu ikki variant ishlatiladi; šorvani bitančaja sallip al – sho'rvani bitonchaga solib ol.

Čomič – ovqat suzishta foydalaniladigan oshxona jihozi; jangama ikki čomič jetamiš oqot – yangamga ikki cho'michh ovqat yetar ekan.

Čolpi – simdan to'qib qilindan, suvda pishadigan ovqatlarni suzishga moslashtirilgan buyum; pīlimīni suzajlik čomiči opčiq – chuchvarani suzaylik cho'lpini olib chiq.

Bališ – yostiqlarning diagal uzun qilib tikilgan variant. Xidreyli, Arabxona qishlog'ida foydalaniladigan yostiqlar turi; bališi opke – balishni olib kel.

Loli jastiqlar – bu yoqtiqlar turi odatdagidak uzunchoq shaklda bo'ladi va ichiga paxta solib emas eski-tuski kiyimlarni solib qattiq ilib tikilgan yostiqlar turi Jumabozor qishlog'ida ko'p uchraydi; eski kiyim kopajan ettaja loli jastiqlar tikaman.

Tanqa // aptava – suv solib yuz-qo'llarni yuvadigan buyum; tanqaja suv toldirip ke tanqaga suv to'ldirib kel.

Davraxana – mehmonlar kelganda yoziladigan ko'rpacha. O'tirish uchun mo'ljallangan uzun ko'rpacha. Barcha qishloqlarda shunday nomlanadi; memonlar keldi, davraxananı toša-mehmonlar keldi davraxonani yoz.

Rapida – non yopadigan buyum; beš rapida nan qaldı tanorda- besh rapida non qaldı tandirda.

Tikač- nonning ustiga naqsh, gul beradigan buyum. Barcha qishloqlarda shunday nom bilan ishlatiladi; patli tikači opke – parli tikachni olib kel.

jeŋča – non uzishda ishlatiladigan, qo'lga kiyiladigan qalin, qattiqroq matodan qilinadigan buyum; jeŋčanı kījip al –yengchani kiyib ol.

Tandir, tanor – shu ikkala variantda ishlatiladi; tanori aqaranča yaq – tandirdi oqarguncha yoq.

Lali – quyuq ovqatlarni suzish uchun ishlatiladigan, yuzasi yoyiqroq idish; lalilari taši – lalilarni toshi

Lagan- chuqurroq xamir qoradigan, kir yuvish uchun ishlatiladigan, misdan tayyorlang idish; xāmīr lāgānı opke – xamir lagani olib kel.

Qatim – ip; igna- qatimlar qerda.

Oqlav – xamir yoyadigan buyum; xamir bašlimiz oqlavı opke – xamirni boshlimiz oqlovni olib kel;

Ševan – xamirni yoyadigan uzun oyog'i kalta stol; ševan kotarma oyir – shevanni ko'tarma og'ir

f) uy-hayvon nomlari

Gečči- echkning urg'ochisi; geččim ušta bačalajan.

İnak – sigir; İnagimı uryači toyan - inagim urg'ochi tug'gan.

Hožak, hožakča – sigirning bolasi; hožakčam jaxšijee- hojakcham yaxshiyeyy.

Kürra – eshakning bolasi; kürračam dikirdap jurıptı – kurracham dikirdap yurıptı.

Pišak // pišik- mushuk; pišagim bešta toyan, man hajran.

Jetmak qozi - bozordan sotib olingan qo'y bolasi. Bu qo'y bolasining onasi bo'lmaydi uni sotib olgan inson sun'iy oziqlantirib katta qiladi; tortta jetmak qozi aldım.

Yūnažin – tug‘magan sigir; balant yūnažinimī sattim- balant g‘unojinimni sotdim.

Taka – echkining erkagi; takalarimi c‘ola uzattim – takalarimni cho‘lga uzotdim.

g) dehqonchilikka oid so‘zlar

čel – yerning cheti; Čeldan jurī, jerī basma

žoja – ekin ekish uchun yerni uzun-uzun qismlarga bo‘lib chiqish; badirīn ekaman dep tortta žoja torttim

jarinža – o‘roq. Olot tumani Lelin yo‘li qishlog‘ida o‘roq shunday nom bilan ishlatiladi.

čikanka – paxtaning bo‘yi baland bo‘lib o‘sib ketmasligi uchun qilinadigan jarayon; čikanka etiš karak tez-tez.

mānyāl – uchi egri bo‘lgan o‘roqning bir turi. Asosan Denov, Xidreyli, Chovdir kabi qishloqlarda ishlatiladi.

Čalyī – uchi egri bo‘lgan bo‘yi uzun beda,bug‘doy kabi o‘simliklarni o‘radigan asbob; bedani čalyīda orsa jaxši šappa boladi – bedani cholg‘ida o‘rgan yaxshi tez bo‘ladi.

Katman – uchi aylana shaklda bo‘lgan, bo‘yi uzun yer chopadigan asbob; katmanim otmas bolip qaln – katmonim o‘tmaydigan bo‘lgan

Bel // pel – uchi yer kovlashga moslangan asbob, yoysimon shaklda bo‘ladi; janği bel aldım, jerlarī kovlašim karak indī. .

Grabil// tirmalayič – uchi bir nechta tishga o‘xshash qismlardan iborat bo‘lgan, asosan mayda, qolib ketgan o‘tlarni yig‘ish uchun ishlatiladigan asbob; buydajīn izini grabillaš karaktī.

Javaq – tishlari tik-tik bo‘ladigan, suqishga moslashtirilgan dehqonchilikda ishlatiladigan buyum; mallara iki javaq beda tašla jetadi.

yaltaq – og‘ir narsalarni solib tashish uchun moslashtirilgan g‘ildirakli temir buyum; jera uč yaltak topir tokišim karak – yerga uch g‘altak to‘pir to‘kishim kerak.

Yulvä – bir ariqdan keying ariqqa suv o‘tkazish uchun yoki ariqdan yerga suv chhiqarish uchun ishlatiladigan quvurga o‘xshash teshik; yulväniñ lattasini tiqdiñmi?

Ariq – yerlarga suv o‘tkazish uchun qo‘lbola usulda qilingan chuqurroq, tor yer; Ariya suv kelan, yerlari suvlaš karak.

Latok – bu ariqlarga suv kelishi uchun qilingan, maxsus beton mahsulotidan tayyorlangan chuqur buyum bilan qilinadi. Asosan bu orqali mahalliy kichik, ariqlarga suv boradi; Latökda suv tošan, nimaja qaramidilar a ?

Bogat- ariqlarning boshlanish yoki oxirgi qismi bo‘gat deyiladi; Bögatiñ oyziga qara narsa tiqilandır.

Ora – O‘ra. Dehqonlar mahsulotlarini qishda ham barra saqlashligi uchun yerni chuqur qozib uning ichiga mahsulotni xaltaga solib solishadi; oradan savzi ališ karak

h) oziq-ovqat nomlari:

Unoši – uzun -uzun qilib kesib tayyorlangan hamirli ovqat; unašini lavlali et – unoshini lovlali qil.

Qatlama – qavat-qavat bo‘ladigan ustiga shakar sepiladigan asosan to‘y marosimlarida tayyorlanadigan non turi; mañajam tojjijīn qatlamasidan ber- menga ham toyingning qatlamasidan ber.

Jampī – ichi ko‘katlardan tayyorlanadigan, tandirda pishiriladigan yarim oy shakldagi ovqat turi. Bu ovqat turini faqat non yopganda yoniga yopish jarayonida qilinadi; nanijīn janiga tortta yampiyam yap.

Bičak- asosan ko'kat,o't mahsulotlaridan qilinadigan, katta to'rtburchak shakldagi ovqat. O'choq qozonda kam yog'da pishiriladi; bičak zör bölandaa.

Pičak – bu ovqat turi qovoqdan tayyorlanadigan kichhkina to'rtburchak shaklda qilinadi. Tandirga yopiladi; bir tanor pičak japtim ozijam.

Atala – un, tuxum, sutdan tayyorlanadigan ovqat turi. Asosan yangi tug'gan ayollar iste'mol qilishi uchun tayyorlanadi; bir brtan atala etimman ozijam

Pijava – uydagi bor mahsulotdan tez tayyor bo'lishi uchun qilinadigan suyuq taom; sujuqqina, qip-qizil pijavača et

Čakalak//is// boyirsaq – un,suv mahsulotlaridan tayyorlanadigan, asosan azalarda, o'lganning ruhini shod qilish maqsadida , biror falokat yuz berganda yoki noxush tush ko'rilganda qilinadigan taom turi. yaman tuš korimman, boyirsaq tašlap aldım.

Qajiš – bu ovqat xamirni to'rtburchak shaklda kichhik-kichhik bo'laklarga ajratib qaynatib pishiriladigan ovqat turi. Ustida pomidor va piyoz bilan podlivka qilinadi; kičik zuvala xamir et, qajiš piširamiz.

Barak – bu taom ko'kat,o'tli mahsulotlardan foydalanib tayyorlanadi. Kichkina to'rtburchak shaklda bo'ladi.

Zomča – handalak; zamčam šujil zor boldi – zomcham shu yil zo'r bo'ldi.

Zardoli, zaldoli – o'rik; šu jil zardali zor bomadi

Yolim – turshak. Faqat o'rikning quritilgani shunday nom bilan ishlatiladi; yolim kop ye, pajda.

Šalot – xasib. Molning ichaklari, qorin qismi, o'pka, yurak qismidan tayyorlanadigan yaxna taom. Asosan qish oyladigan qilinadi. Bu taom molning o'pka, yurak qismi mayda qilib, qoringa solib qaynatib pishiriladi; šalotiņ zor bolan, anasi

Bepiri // Qavurma barak – xamirning ichiga go'shtning qiymasi solib, chuchvarag o'xshab tuguladi va yo'gda pishiriladi; toja dep iki lagan bepiri piširdik.

Sutbirinč – shirguruch. Sut va guruchdan tayyorlanadigan ovqat nomi; šundaq sutbirinč jijsim keldi – shundoq sutbirinč yegim keldi.

Xulosa. Olot shevasi o'zbek tilining o'ziga xos hududiy ko'rinishlaridan biri bo'lib, uning leksik tarkibida qadimiy turkiy qatlam, mahalliy etnografik birliklar va boshqa tillar ta'sirida shakllangan so'zlar muhim o'rin tutadi. Sheva leksikasini o'rganish xalqning tarixiy-madaniy hayoti, turmush tarzi va til taraqqiyotini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois Olot shevasining lug'aviy boyligini tadqiq etish o'zbek dialektologiyasi va leksikologiyasini yangi ilmiy ma'lumotlar bilan boyitishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Аллабердиев А.А. Бухоро ўғуз шевалар лексикаси.–Тошкент, 2018.– В.164.
2. Мирзаев. М. М. Ўзбек тили Бухоро группа шевалари, Ташкент, 1969.– Б.156.
3. Шоабдурахмонов Ш.Ш Ўзбек халқ шевалари морфологияси.– Ташкент: Фан, 1984. – Б. 281.